

**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARING BADIY-ESTETIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK
XUSUSIYATLARI**

Tojiboyev Jaxongir Umijon o'g'li
FarDU Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarining badiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, ta'limgartarbiya jarayonida talabalarining badiy-estetik kompetentligini rivojlantirishda kreativ yondashuvni qo'llashning ahamiyati haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: kreativ, kompetensiya, improvizatsiya, badiy-estetik, pedagogik xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, ommaviy madaniyat .

San'atning boy g'oyaviy-tarbiyaviy imkoniyatlari barcha davrlarda muhim didaktik vosita sifatida qo'llanib kelingan. Bu haqda xalq pedagogikasi tarixida muxim xulosalar mavjud. Bu borada "Guliston" va "Bo'ston" asarlari muallifi Sa'diyning quyidagi fikrlari e'tiborga molik "San'at asarlarining ajib xususiyatlaridan biri - tomosha etguvchi va tinglaguvchilarining yuraklarida ruhiy bir lazzat va ajib bir to'lqin tug'dirmoq bo'lib, bu san'at asarlari uchun eng muhim bir xususiyat, eng muhim bir shart. Eng to'g'risi, bu, xatto, san'atning eng buyuk bir g'oyasidir. Bir san'at asari yuraklarda biror ajib to'lqin va ajib lazzat, ta'mli bir ta'sir tug'dirsa, miyada ham ajib bir qo'zgalish yasasa, bu asar haqiqiy bir san'at asari bo'lib sanalmoqqa tamom haqlik bo'ladir"⁵⁵. Allomaning bu fikrlari bevosita san'atning inson ruhiyatiga ta'sirining psixologik xususiyatlari sifatida qaralishi mumkin.

Yurtimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi madaniyat va san'at sohasida ham islohotlar amalga oshirilmoqda. "2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi" sohaga g'amxo'rlikni davlatimizning strategik vazifasiga aylantirdi. Zero, estetik niqob ortidagi g'oyaviy tajovuzlarning mohiyatini ochib berish uchun "jaholatga qarshi ma'rifat" asosida faol g'oyaviy-estetik tarbiya bilan kurash olib borish mumkin. Bu ishda, avvalo, oqilona ishlab chiqilgan tizim-tartib bo'lishi lozim. Oliy ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida g'oyaviy-estetik tarbiyani ilmiy asoslangan, pedagogik texnologiya asosida kurish, "ommaviy madaniyat" ta'siriga qarshi mafkuraviy immunitetni ilmiy asosda shakllantirishda oliy ta'lim muassasasining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur. Bu borada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini badiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammoni yechimining eng samarali yo'llaridan biridir. Chunki kasbiy-ijodiy kompetensiyaga ega pedagog o'quvchi-yoshlarda badiy-estetik manbalardan oqilona foydalanish malakasiga ega bo'ladi.

⁵⁵ Абдурахмон Саъдий. Гузал санъат дунёсида / Инкилоб, 1922 йил, 2-сон

Talaba shaxsini badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali nafaqat estetik yo'nalishda, balki milliy g'oya va milliy ma'naviyat asosida shakllantirish muammosining nazariy jihatlari serqirra va keng qamrovli jarayon bo'lganligi uchun, avvalo, jarayonni psixologik va pedagogik xususiyatlarini to'g'ri anglash va yo'naltirish talab etiladi.

Oliy talim muassasalari talabalarida badiiy-ijodiy qobiliylatlarni rivojlantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning ta'limi va tarbiyaviy imkoniyatlaridan integrative tarzda foydalanishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Zero, aynan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning individuallik xususiyatlarini maksimal darajada e'tiborga olish imkoniyatini yuzaga keltirad. Natijada jarayonning psixologik va pedagogik jihatlarini to'laqonli inobatga olish uchun qulay ta'limi muhit yaratiladi. Chunki badiiy to'garaklari oldida talabalarda mustaqil badiiy, estetik munosabat, milliy san'atimizga muxabbat tuyg'ularini shakllantirish; "ommaviy madaniyat"ning asl maqsad-mohiyatini tushuntirish; talabalarni yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi san'at namunalaridan himoya qilish; milliy g'oya ideallari asosida yashash va ishlashga o'rnatish; O'zbekistonni rivojlantirishning beshta yunalishga asoslangan Xarakatlar strategiyasi mohiyatini uqitirish; milliy urf-odatlarimiz va an'analarimizga sadoqatni shakllantirish; yuksak ma'naviyat va ma'rifatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish; ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga o'rnatish; ustozlarga hurmat, ularni e'zozlash, barcha jabhalarda talabalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'zozli munosabatini tarbiyalash kabi vazifalar yuklatilgan.

Badiiy-estetik tarbiya - talabalarning estetik didi va g'oyaviy ideallarini mujassamlashtirish, bunyodkor g'oyalari va san'atdagi go'zallikni to'g'ri idrok qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirish jarayoni sifatida talabalarda badiiy-ijodiy qobiliylatlarni rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi.

Talabalarda badiiy-ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishning ta'limi samarasi bilan bir qatorda ma'naviy-tarbiyaviy funksiyalari ham mavjud bo'lib, keng miqiyosda talaba-yoshlar "ommaviy madaniyat" yo'naltirilgan asosiy ijtimoiy segment sifatida yoshlarda sog'lom mafkurani shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois yoshlarimiz va milliy-badiiy estetik qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan ushbu muammoga tadqiqotimizda alohida e'tibor qaratildi. "Ommaviy madaniyat" tushunchasining keng tarqala boshlashi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. "Ommaviy madaniyat" an'anaviy madaniyatning ma'lum yo'nalishi sifatida emas, balki madaniyatdagи sifat o'zgarishi, texnologik rivojlanishi taqozosi asosida yuz berdi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining keskin rivojlanib, ma'naviy maxsulotlarni industrial tijorat tarzida ishlab chiqarish va tarqatish rivojlandi. Buning natijasida, aholining bilim darjasini o'sishi bilan birga uning ma'naviy ehtiyojlarida pasayish jarayoni kuzatila boshladi.

Internet tizimi orqali ommaviy madaniyat maxsulotlari mamlakatimizga kirib kelmoqda va ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng tarqalmokda. Natijada, qadimiy, betakror

milliy madaniyat va san'at makonida yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kontent hajmi va turlari ko'payib bormoqda. Bu esa talabalarni badiiy-estetik tarbiyalash oldiga muhim va yangi vazifalarni qo'yemoqda. Ushbu jarayonni amalga oshirishda talabalarda estetik kompetentlikni rivojlantirish ustuvor vazifa sanaladi. Shu o'rinda haqli savol tug'ilishi mumkin: kompetensiya o'zi nima? Ilmiy va badiiy adabiyotlarda kompetentlik tushunchasiga qanday ta'riflar berilgan? Badiiy-estetik kompetensiya ijodkorlik kompetensiyasining xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi? Ularni umumiy kompetensiyalar bilan qanday mushtaraklik yoki farqlanuvchi jihatlari bor?

"Kompeteniya" tushunchasi lotincha "competere" – qobiliyat so'zidan olingan bo'lib, "yaroqlilik, loyiqlik" degan ma'noni bildiradi. Ushbu so'z keng ma'noda umumiy yoki muayyan masalalarni yechishda mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada qo'llay olishni ham anglatadi. Demak, kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish layoqatidir.

Filologik ilmiy adabiyotlarda "kompetensiya" atamasi dastlab XX asr o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, tildan foydalanish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida, keyingi avlod filologlari tomonidan esa kompetensiyaviy yondashuv deya e'tirof etilgan. Bunda kompetentlik va kompetensiyaviy yondashuv atamalari ta'lim-tarbiya jarayonida natijaviylikni ko'rsatuvchi yetakchi omillar sifatida qayd etiladi.

"Kompetentlik" – bu shaxs va uning hayotiy faoliyatiga berilgan ta'rif hisoblanib, u ko'p hollarda, turli ma'lumotlar beradigan lug'at va ma'lumotnomalarda "biron-nima haqida fikr yuritish, o'z fikr-mulohazasini bildirish imkonini beradigan bilimlarni chuqur egallahash", deya ta'riflanadi. Boshqacha aytganda, kompetentlik – bu, avvalambor, ishni muvaffaqiyatli bajara olish uchun qanday bilimlar zarur ekanligini tushunishning aniq darajasidir. Kasbiy kompetentlik esa o'qituvchining kasb faoliyatidagi muhim masalalarni hal etishda egallangan bilim ko'nikma va malakalarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olish mahoratidir.

R.P.Milrudning fikricha: "... kompetensiya – bu shunday alohida faoliyat sohasiki, bunda individ yuqori darajadagi o'zlashtirilgan yutuqlar strategiyasini namoyish qiladi. Tajriba, mavjud bilimlar va doimiy o'z ustida ishlash asosida atrofdagi borliqning turli sohalarida qanday xatti-harakatlarni amalga oshirish kerakligi haqidagi strategiyalar, malaka va amaliy bilimlar olish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlardir. Demak, kompetentlilik – bu egallangan amaliy bilimlar va shakllangan malaka asosida muvaffaqiyat strategiyalarini o'zlashtirish hisobiga samarali faoliyat yuritish qobiliyatidir [34, 71-b.]. Shuning uchun kompetentlikni zamonaviy tushunish insonda ham o'z imkoniyatlarini ishga solish va muayyan funksiyalarni bajara olish qobiliyatini hamda unga mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish imkonini beradigan ruhiy holatlarning mavjudligini o'z ichiga oladi . Xorijiy olimlardan yana biri I.A.Zimnyaya

o‘z maqolasida [35,c.61] kompetentlik tushunchasini quyidagicha tarifaydi: "kompetentsiyalar - bu ba'zi ichki, potentsial, yashirin psixologik neoplazmalar (bilimlar, g‘oyalar, harakatlar dasturlari (algoritmlari), qadriyatlar va munosabatlar tizimi), keyinchalik ular insoniy kompetentsiyalarda dolzARB, faoliyat ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi." Xulq-atvorda, inson faoliyatida namoyon bo‘ladigan vakolatlar uning individual-psixologik xususiyatlariga aylanadi. Shunga ko‘ra, ular kognitiv (bilim) va tajriba bilan bir qatorda motivatsion, semantik va tartibga soluvchi komponentlar bilan tavsiflangan kompetentsiyalarga aylanadi. Shuning uchun biz "kompetentlik" atamasi deganda shaxsning ushbu ajralmas xususiyatlarini tushnamiz.

Ba’zi hollarda, kompetentlik atamasi tayyorlik ma’nosida ham qo’llaniladi. “Tayyorlik” tushunchasi bu holda “kompetentlik” tushunchasiga nisbatan umumiylig sifatida qaraladi. Kompetentsiya (kompetentlik) ta’riflaridan biri uni “o‘quvchining olgan bilimlari, o‘quv ko‘nikmalari va malakalarini, shuningdek, amaliy va nazariy masalalarni hal etishda hayotda ishlash usullaridan foydalanishga tayyorligi”, deb izohlanadi

ADABIYOTLAR:

1. Guilford J.P. Demos G.D. Torrance E.P. Factors That Aid and Hinder Creativity // Creativity Its Educational Implications. John Wiley and Sons, Inc. N.Y., 1967. 336 p.
2. Хеллер К.А. Роль креативности в объяснении одаренности и выдающихся достижений // Актуальные проблемы психологии Том 6. Психология одаренности / Под ред. Р.А. Семеновой Пономаревой. - К., 2002. - Вып. 1. - С. 104-120.
3. Tojiboyev, J. U. O. G. L. (2022). TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 585-594.
4. SAIDKULOVICH, S.B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students’ Aesthetic Culture in the Process of Globalization. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 8(1), 75-77.
5. Ugli, T. J. U. (2022). The role of aesthetic education in the preparation of future fine art teachers for professional activity. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(12), 60-64.